(5). Critchley H.D., Garfinkel S.N. (2017). Interoception and emotion. Current Opinion in Psychology, 17, p. 7–14. https://doi.org/10.1016/j.copsyc.2017.04.020

(6). Florian L. (2019). On the necessary co-existence of special and inclusive education. International Journal of Inclusive Education, 23(7–8), p. 691–704. https://doi.org/10.1080/13603116.2019.1622801

(7). Tilakova M.A. (2024). Inkluziv ta'lim ishtirokchilarini psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlashni samarali tashkil etish. Pedagogs International Research Journal, 61(1), p. 22–27.

Mamatqulova Nilufar Fayzullaqulovna (O'zbekiston davlat Jahon tillari universiteti, p.f.f.d. (PhD); dotsent; n.mamatqulova@uzswlu.uz)

XORIJIY TIL DARSLARIDA EKOLINGVISTIK KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING METODIK ASOSLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada zamonaviy filologik ta'limda ekolingvistik yondashuvni xorijiy tillarni, xususan, ingliz tilini o'qitish jarayoniga integratsiyalash masalalari tahlil qilinadi. Unda til o'rganish jarayonida ekologik ongni shakllantirish, barqaror rivojlanish tamoyillarini ta'lim mazmuniga singdirishning nazariy va amaliy asoslari yoritiladi. Tadqiqotda ekolingvistika, "yashil" pedagogika, CLIL va CBI metodlari orqali ekologik mazmundagi materiallardan foydalanishning samaradorligi ko'rsatib beriladi. Ekolingvistik yondashuv filolog talabalarning nafaqat til kompetensiyasini, balki ekologik ongini, tanqidiy fikrlashini va ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirishda muhim omil ekani ilmiy jihatdan asoslanadi.*

Kalit so'zlar*: ekolingvistika, filologik ta'lim, ekologik ong, barqaror rivojlanish, xorijiy tilni o'qitish, yashil pedagogika, CLIL, CBI, fanlararo integratsiya, ekolingvistik kompetensiya, til va mazmun integratsiyasi, barqarorlik ta'limi*

Маматкулова Нилуфар Файзуллакуловна (доцент, доктор философии по педагогическим наукам (PhD), Узбекский государственный университет мировых языков; E-mail: n.mamatqulova@uzswlu.uz)

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ЭКОЛОГИНГВИСТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ НА ЗАНЯТИЯХ ПО ИЗУЧЕНИЮ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

Аннотация. *В данной статье анализируются вопросы интеграции эколингвистического подхода в процесс преподавания иностранных языков, в частности английского, в современном филологическом образовании. Выделяются теоретические и практические основы формирования экологического сознания в процессе изучения языка и включения принципов устойчивого развития в содержание образования. Исследование демонстрирует эффективность использования материалов с экологическим содержанием посредством эколингвистики, «зеленой» педагогики, методов CLIL и CBI. Эколингвистический подход научно обоснован как важный фактор развития не только языковой компетенции, но и экологического сознания, критического мышления и социальной ответственности студентов-филологов.*

Ключевые слова: *филологическое образование, экологическое сознание, устойчивое развитие, обучение иностранным языкам, "зелёная" педагогика, CLIL, CBI, междисциплинарная интеграция, эколингвистическая компетенция, интеграция языка и содержания, образование в интересах устойчивого развития.*

Mamatkulova Nilufar Fayzullakulovna (Associate Professor, PhD in Pedagogy, Uzbekistan State World Languages University; E-mail: n.mamatqulova@uzswlu.uz)

METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF DEVELOPING ECOLINGUISTIC COMPETENCE AT FOREIGN LANGUAGE CLASSES

Annotation. *This article analyzes the issues of integrating the ecolinguistic approach into the process of teaching foreign languages, in particular English, in modern philological education. It highlights the theoretical and practical foundations of forming ecological awareness in the process of language learning, and incorporating the principles of sustainable development into the content of education. The study demonstrates the effectiveness of using materials with ecological content through ecolinguistics, "green" pedagogy, CLIL and CBI methods. The ecolinguistic approach is scientifically substantiated as an important factor in developing not only language competence, but also ecological awareness, critical thinking and social responsibility of philological students.*

Keywords: *Philological education, ecological awareness, sustainable development, foreign language teaching, green pedagogy, CLIL, CBI, interdisciplinary integration, ecolinguistic competence, language and content integration, education for sustainable development*

Kirish. So'nggi yillarda ekologik muammolarni til va madaniyat bilan uzviy bog'liq holda o'rganuvchi ekolingvistika yo'nalishi ilmiy tadqiqotlarda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ekolingvistika til orqali atrof-muhitga munosabatni shakllantirish, inson tafakkurida tabiatga nisbatan mas'uliyatli yondashuvni rivojlantirish imkonini beradi. Ayniqsa, xorijiy tillarni o'qitish jarayonida ekologik mazmunli materiallardan

foydalanish talabalarni nafaqat til kompetensiyasiga, balki ekologik savodxonlikka ham ega bo'lishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, barqaror rivojlanish uchun ta'lim (Education for Sustainable Development) konsepsiyasi doirasida "yashil" pedagogika, CLIL (Content and Language Integrated Learning) va CBI (Content-Based Instruction) metodlarining qo'llanilishi xorijiy til darslarida ekologik mazmundagi bilimlarni til o'rganish jarayoni bilan uyg'unlashtirish imkonini bermoqda. Bunday integratsiya talabalarni ekologik masalalarga befarq bo'lmagan, ongli va mas'uliyatli shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi. Shu bois mazkur tadqiqot xorijiy til darslarida filolog talabalarning ekolingvistik kompetensiyasini takomillashtirishning metodik asoslarini yoritishga, shuningdek, ekologik ta'limni til o'qitish jarayoniga tizimli integratsiya qilish yo'llarini aniqlashga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili. Usama va Tarai ta'kidlashicha, ekolingvistika yo'nalishini ta'limga, xususan, ingliz tilini o'qitishga joriy etish talabalarni ekologik muammolarni chuqur tushunishga va ularga mas'uliyat bilan yondashishga undaydi. Bu barqaror rivojlanish uchun ta'lim maqsadlariga mos kelib, o'quvchilarda ekologik ong va mas'uliyatli qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantiradi [5].

Nur, Anas va Pilularga ko'ra, Stryker va Leaverlar tadqiqotchilar Garner va Borg, Bouckaert va Koolsning ishlariga tayanib, shuni ta'kidlaydilarki, *til ta'limi dasturini ishlab chiqish* til siyosati, mazmunga asoslangan til o'rgatish (CBI) va fan vat til integrallashgan holda o'qitish (CLIL)ga asoslanadi. Mazmunga asoslangan o'qitish talabalarni mustaqil va faol o'rganuvchilarga aylantiradi va tilning ekologik tushunchasiga asoslanadi. Fan va til integrallashgan holda o'qitish va mazmunga asoslangan til o'rgatish (CBI va CLIL) bir-biriga o'xshash, o'quvchilar bir vaqtda til va akademik mazmunni o'rganadi. Til siyosatchilari o'quv dasturida o'zgarishlar zarurligini va ekologik masalalarga e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlaydilar [4;3-b.].

Barber va boshqalar ta'kidlashicha iqlim ta'limi bu ishlarni bajarish usulimizni o'zgartirish, shuningdek, kundalik qarorlarimiz va harakatlarimizni "atrof-muhit ko'zlari" bilan ko'rishdir. Bu yondashuvni ingliz tili darslari va materiallariga ham qo'llash mumkin. Ta'kidlanishicha, ta'limda barqarorlik mavzularini qo'shishda e'tiborga olish kerak bo'lgan jihatlar quyidagilar:

• Barqarorlik mavzularini o'quv dasturiga integratsiyalash. Iqlim inqirozi mavzusiga bag'ishlangan darslar o'quvchilar orasida barqarorlik haqida xabardorlikni oshirish uchun yaxshi imkoniyatdir. Ammo ba'zan o'quv dasturi, kurs va imtihonlarni hisobga olib, butun darsni shu mavzuga bag'ishlash qiyin bo'lishi mumkin. Shu sababli iqlim va barqarorlik mavzularini o'quv dasturiga qanday qo'shish masalasi muhim.

Masalan, o'quv kitobidagi "transport" bo'limida har xil sayohat usullari haqida matn bo'lsa, o'quvchilarni har bir transport turi atrof-muhitga qanday ta'sir qilishi haqida o'ylashga undash mumkin. Bu orqali samolyot va avtomobil sayohatining karbon izi, velosiped va piyoda yurish kabi ekologik toza variantlar muhokama qilinadi. Bu kichik o'zgartirishlar dars davomiyligini sezilarli o'zgartirmaydi, lekin iqlim mavzusini kiritadi.

• Yosh va darajaga qarab moslashtirish. Ba'zi ilmiy mavzular yoshga va aqliy darajaga mos bo'lishi kerak. Yosh til o'rganuvchilar global isish va mintaqadagi toshqin kabi hodisalar o'rtasidagi bog'liqlikni tushunishda qo'llab-quvvatlashni talab qiladi.

O'spirinlarda "eko-xavotir" muhim masala: ijtimoiy tarmoqlar iqlim inqirozi haqida ko'p salbiy ma'lumot tarqatishi mumkin. Shu sababli muammo emas, yechimlarga urg'u berish kerakligi, kichik o'zgarishlar ham ta'sir qilishi mumkin degan fikrni tarqatish tavsiya etiladi.

• O'quvchilar bilim darajasini boshqarish. Iqlim mavzusi bilan birinchi marta tanishishda o'quvchilarning texnik bilimlarini o'lchash qiyin bo'lishi mumkin. Bu uchun informal tarzda, muhokama shaklida kichik viktorina o'tkazish tavsiya etiladi. O'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida birgalikda ilmiy bilimlarni o'rganish ham o'zaro tashvishlarni kamaytiradi. Yosh o'quvchilar bilan esa plastmassa sumkalar yoki transport ifloslanishi kabi kundalik misollar yordamida mavzuni tushuntirish yaxshidir.

• Fanlararo integratsiya imkoniyatlari. Iqlim o'zgarishi va barqarorlik masalalari fanlarning ko'pida o'rgatilishi mumkin: geografiya, biologiya, ijtimoiy fanlar, tarix, sport kabi. Masalan, ingliz tili darsida suv tanqisligi muhokama qilinayotganda, biologiya darsida ham shu mavzu ko'rib chiqilsa, o'quvchilar yaxshiroq tushunadi. Shu sababli fanlararo hamkorlik muhimdir.

• Ingliz tili darslarining maktabni "yashil" qilishdagi roli. Dunyo bo'ylab ko'plab ta'lim muassasalari o'z faoliyatlarini ekologik qilib o'zgartirmoqda: qog'ozni qayta ishlash, quyosh energiyasidan foydalanish, daraxt ekish kabi. Iqlim mavzusini darsga kiritish shu jarayonning bir qismidir. Masalan, o'quvchilar maktabda kichik bog' yaratishi yoki plastik ifloslanish haqida plakatlar tayyorlashi darsni mustahkamlaydi [1].

Filolog talabalarning ekolingvistik kompetensiyasini oshirishda xorijiy tillarni o'qitish dasturiy ta'minotini takomillashtirish, barqarorlik mavzularini integratsiyalashda o'qituvchilarga quyidagi tavsiyalar keltirilib o'tiladi (1-jadvalga qarang) [2].

1-jadval

Til o‘rganishda ekolingvistik yondashuv: samarali til darslari uchun tavsiyalar

№	Tavsiya	Mazmuni
1	**“Hozirgi vaziyat”ga e’tibor qaratish**	Til o‘rganishning asosiy maqsadini unutmagan holda, darslarni dolzarb voqealar yoki fasllar bilan bog‘lash, masalan, aprel oyi uchun “Yer kuni” yoki yangiliklarda tilga olinayotgan havoning sifati kabilar. Shunda mavzu o‘quvchilar uchun ahamiyatli va qiziqarli bo‘ladi
2	**Yangicha nuqtayi nazar bilan yondashish**	Doimiy ravishda ishlatiladigan iflos zavodlar yoki muzliklar tasvirlaridan ko‘ra, ekoturizm yoki poezdda sayohat kabi kutilmagan, ammo foydali va ijobiy misollar talabalarni qiziqtira oladi.
3	**Mahalliylashtirish va shaxsiy-lashtirish**	Muammoni o‘quvchilarga yaqinlashtirish, masalan, mahalliy ekologik muammo va masalalar orqali. Shunda ularga mavzu tushunarliroq bo‘ladi.
4	**Odamlarga e’tibor qaratuvchi “yashil” ingliz tili darslarini tashkil qilish**	Statistikalar va mavhum faktlar o‘rniga insoniy hikoyalarga e’tibor qaratish, masalan ekologik faollar, atrof-muhitdan aziyat chekkan yoki uni yaxshilashga hissa qo‘shayotgan insonlar haqida. Bu darslarni yanada ma’noli qiladi.
5	**Ijobiy va rag‘batlantiruvchi bo‘lish**	Yechimlar va o‘quvchilarning faolligini aks ettiruvchi faoliyatlarni taklif eting.
6	**Til o‘rganish maqsadini hamisha yodda saqlash**	Atrof-muhit haqidagi mavzular qanchalik qiziq bo‘lmasin, darsda aniq til maqsadlari bo‘lishi kerak – grammatika, so‘z boyligi, gapirish ko‘nikmalari. Asosiy maqsad – tilni o‘rgatish, mavzu esa vositadir.
7	**“Yashil” ingliz tili darslarini interaktivlikni saqlagan holda tashkil qilish**	Darslar guruh ishlari, real topshiriqlar va faoliyatlar asosida, guruhli munozarali va haqiqiy topshiriqlarga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak bo‘lishi kerak.
8	**Hamisha izlanishda bo‘lish**	Atrof-muhit mavzularini darsga qo‘shish doimiy o‘rganishni va tajriba almashinuvini talab qiladi. Atrof-muhit mavzularini til o‘rganishga integratsiya qilish – bu o‘qituvchilik mahoratini talab qiladi. Doimiy o‘rganish, tajriba almashish va yangiliklarni kuzatib boorish tavsiya qilinadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, filolog talabalarning ekolingvistik kompetensiyasini oshirishda xorijiy tillarni o‘qitish dasturiy ta’minotini takomillashtirishda ekolingvistik yondashuvni integratsiyalash, nafaqat til kompetensiyalarini rivojlantirish, balki talabalar ekologik ongini shakllantirish va ularni global muammolarga mas’uliyat bilan yondashishga undashning samarali yo‘li sifatida namoyon bo‘lmoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, ingliz tilini o‘rgatishda "yashil" pedagogika, fan vat til integrallashgan holda o‘qitish (CLIL–Content and Language Integrated Learning), mazmunga asoslangan til o‘rgatish (CBI-Content-Based Instruction) va YITO‘ (yashil ingliz tilini o‘qitish) kabi metodlar orqali ekologik mazmundagi darslar talabalarni tanqidiy fikrlashga, ijodkorlikka, ijtimoiy faollikka va barqarorlik tamoyillarini anglashga yo‘naltiradi. Ekologik ta’limni ta’lim dasturlariga chuqur va tizimli tarzda integratsiya qilish – bu tasodifiy mavzular qo‘shish emas, balki metodologik yondashuvni tubdan o‘zgartirishni talab etadi. Shu bois filolog talabalarning ekolingvistik kompetensiyasini oshirishda *o‘qituvchilarning malakasi*, *o‘quv materiallarining sifati*, *fanlararo hamkorlik* va *ta’lim siyosatining qo‘llab-quvvatlovi* muhim rol o‘ynaydi. Bu jarayonda o‘qituvchilar, talabalar va ta’lim muassasalari hamkorligi ekologik savodxon va mas’uliyatli avlodni shakllantirish uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Barber D., Bilsborough K., Graham C., Kral T. Climate action in language education: Activities for low resource classrooms [elektron resurs]. London, British Council, 2022, URL: https://www.britishcouncil.org (murojaat qilingan sana: 2025.06.13).

(2). ELT Sustainable. 6 ways to make great environment-themed language lessons [elektron resurs]. URL, https://eltsustainable.org/6-ways-to-make-great-environment-themed-language-lessons/(murojaat qilingan sana: 2025.06.13).

(3). Mamatkulova N.F. Enhancing Students’ Ecolinguistic Awareness as a key Educational Priority in the 21st Century. “O‘zbekistonda xorijiy tillar”, 2025, 11-jild, № 4, pp. 152–166.

(4). Nur S., Anas I., Pilu R. The call for environmentally-based language teaching and green pedagogy: Climate actions in language education. Elsya: Journal of English Language Studies. 2022, vol. 4, № 1, p. 77–85.

(5). Usama M., Tarai S. Eco-linguistic approach in English language education: Enhancing English language proficiency and sustainability awareness. Language in India. 2024. Vol. 24, № 7.URL:http://www.languageinindia.com (murojaat qilingan sana: 03.06.2025).